

Ma'rifat va ma'naviyat maskani

Xabaringiz bor, "Adiblar xiyoboni" buniyod etilgani xalqimiz uchun, ayniqsa, yoshlar uchun juda katta sovg'a desak, adashmagan bo'lamiz. Buning isbotini ayni shu muqaddas qadamjoda bo'lib o'tayotgan tadbirlar, katta loyihalar va forumlar misolida ko'rib turibsiz. Bundan tashqari talaba-yoshlar orasida Adiblar hayotini keng targ'ib qilish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga shoir va yozuvchilar ijodi va faoliyatini o'rganish vazifasi yuklatilgan.



Toshkent irrigatsiya va qishloq jo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida ham bugungi kunda o'zbek xalqi ulug'lagan shoir Abdulla Oripov xotirasi va ijodiga bag'ishlangan ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Shu o'rinda mart oyida institutimizda shoirimiz Abdulla Oripov hayoti va xotirasiga bag'ishlangan katta bayram tadbiri o'tkazilishi belgilangan. Institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori rahbarligida shoir Abdulla Oripov bayram tadbirini o'tkazish bo'yicha ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda yoshlar bilan ishlash bo'yicha soha vakillari, jamoat tashkilotlari rahbarlari, fakultetlar mutasaddi xodimlari ishtirok etishdi.



Takliflar va fikrlar tinglandi. Shuningdek, shoir hayotiga bag'ishlab, insholar va rasmlar tanlovi, she'rlar va videoroliklar tanlovi hamda sport musobaqalari o'tkazilishi belgilab olindi. Tanlov va tadbirlarga start berildi. Institut jamoasi, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarni e'lon qilinadigan tanlov va loyihalarda faol ishtirok etishga chaqiramiz. Zero, G'oliblar institut rektori va institut Kasaba uyushmasi qo'mitasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Abdulla Oripov she'rlaridan ham yod oling, chunki #tiiamechellenj ham o'tkaziladi. Bunda institut rahbariyati ham ishtirok etishi kutilmoqda.

TIQXMMI matbuot xizmati